

**YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD 08/27.09.2024.San.183.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI
INSTITUTI**

SHERIMMATOV JUR’ATBEK SHUXRATOVICH

**XORAZM MAQOMLARIDA LAD VA SHAKL MASALALARI
(Rost maqomi misolida)**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundariyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по искусствоведению**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)
on art history**

Sherimmatov Jur’atbek Shuxratovich

Xorazm maqomlarida lad va shakl masalalari (Rost maqomi misolida)3

Шеримматов Журъатбек Шухратович

Вопросы лада и формы в Хорезмских макомах (на примере макома Рост)...23

Sherimmatov Juratbek Shukhratovich

Questions of modus and form in Khorezm maqoms (on the example of the maqom Rost).....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD 08/27.09.2024.San.183.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI
INSTITUTI**

SHERIMMATOV JUR’ATBEK SHUXRATOVICH

**XORAZM MAQOMLARIDA LAD VA SHAKL MASALALARI
(Rost maqomi misolida)**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/San166 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning (www.uzmmsi.uz) manziliga va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergasheva Chinora Ergashevna

san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Tursunova Gulshanoy Artikjanovna

san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Abdurashidov Abduvali Abdumajidovich

san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Dissertatsiya himoyasi Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/27.09.2024.San.183.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___"_____kuni soat___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 31-uy. Tel.:(99871) 237-38-37; faks:(99871)237-35-75; e-mail: info@uzmmsi.uz

Dissertatsiya bilan Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 31-uy. Tel.:(99871) 237-38-37; faks:(99871)237-35-75; e-mail: info@uzmmsi.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

R.S.Abdullayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

A.M.Maxmudov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

S.M.Begmatov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, san'atshunoslik
fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon musiqiy-madaniy taraqqiyotida milliy musiqiy merosni, ayniqsa, o‘zbek maqom san’atining tarixiy shakllanishi, estetik tamoyillari va nazariy-amaliy asoslariga qiziqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida maqomot tizimini o‘rganishda milliy musiqiy qadriyatlarning transformatsiya jarayonlari, tarixiy manbalar bilan zamonaviy ijrochilik an’analari o‘rtasidagi tafovutlar, shuningdek, maqomlarning hududiy tarmoqlanishini aniqlash va ularni qiyosiy tahlil etish zaruriyati yuzaga chiqmoqda. Shu jihatdan, o‘zbek maqomotining ko‘p asrlik an’analari saqlab qolish, ularni zamonaviy musiqiy va madaniy jarayonlarga integratsiya qilish, shuningdek, maqom san’atini nazariy va amaliy nuqtai nazardan o‘rganish vazifalari mahalliy va jahon miqyosida dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon etnomusiqashunosligi sohasida so‘nggi yillarda Xorazm mumtoz musiqasining shakllanishi, nazariy asoslari, melodik tuzilishi va Sharq maqom tizimidagi o‘rni masalalariga e’tibor kuchaymoqda. Xiva xonligi davridagi madaniy-musiqiy muhit, bastakorlik va ijrochilik an’analari bilan bog‘liq tarixiy manbalar Xorazm maqom maktabining o‘ziga xosligini ilmiy asosda yoritish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, Xorazm maqomlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida tadqiq etish, nota tizimini standartlashtirish, an’anaviy ijrochilik maktablarini qayta tiklash va ularning nomoddiy madaniy meros sifatidagi maqomini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda milliy musiqiy merosni tiklash va rivojlantirish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida maqom san’atiga bo‘lgan e’tibor yildan-yilga ortmoqda. Xususan, O‘zbek maqomoti – Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari kabi bebaho maqom durdonalariga bo‘lgan yuqori e’tibor, mazkur san’atning qadimiy navlarini va mumtoz ta’limotini tiklash, yangidan-yangi qirralarini shakllantirishga qaratilmoqda. “Maqom – o‘zida xalqning teran ruhiyati, ezgu niyatlari, milliy mentaliteti, so‘nmas qadriyatlarini mujassam etgan bo‘lib, sivilizatsiya taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi”¹. Bu borada yurtboshimizning yuqoridagi fikrlari mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarning ijtimoiy-madaniy va g‘oyaviy asoslarini belgilab bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-son “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

¹ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ikkinchi Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/7352>

qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oʻzbek maqomlarining ilmiy nazariy masalalari, ayniqsa, lad, ritm va shakllanish xususiyatlarini xorijlik mutaxassislar: J.Farmer, R.Erlandje, Yu.Kon, N.Kokulyanskaya, Yu.Plaxov, T.Levin, A.Yung, S.Daukeeva, A.Nizomov, G.Shamilli, F.Aziziy, A.Abdurashidov²; Mahalliy olimlardan: V.Uspenskiy, N.Mironov, V.Belyayev, Ye.Romanovskaya, I.Rajabov, F.Karomatov, A.Nazarov, T.Vizgo, S.Galitskaya, R.Sultanova, T.Gʻofurbekov, O.Matyoqubov, R.Abdullayev, O.Azimova, S.Matyakubova, R.Yunusov, O.Ibrohimov, S.Begmatov³ va boshqa mutaxassislarning mavzu doirasida amalga oshirgan tadqiqotlarini qayd etish lozim.

Xorazm maqomlarining tarixiy, ilmiy-nazariy va amaliy masalalarini B. Rahmon oʻgʻli, M. Devonzoda, A.Fitrat, V.Uspenskiy, N.Mironov, Ye.Romanovskaya, II.Akbarov, M.Yusupov, I.Rajabov, O.Matyaqubov,

² Farmer H.G. A History of Arabian Music. To the XIII th century. London: Luzac&Co., 1929; D'Erlander R. La musique Arabe: Trad. française. Paris: Librairie orientaliste Paul Geuthner, 1930-1949. 5 t.; Кон Ю.Г. Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и её гармонизации. –Ташкент. 1979.; Кокулянская В.П. Ладоинтонационный процесс в вокальных частях Шашмакома// Проблемы теоретического музыкознания в Узбекистана. – Ташкент, 1976; Плахов Ю.Н. Художественной канон в системе профессиональной восточной монодии. –Ташкент, 1988; Levin T. The music and tradition of the Bukhara Shashmakam in Uzbekistan. Dissertation information service. Vol. I and II. – Michigan, 1987; Jung A. Der Shashmaqam aus Buchara uberliefert von den alten Meistern notiert von Ari Babakhanov. – Berlin, 2010; Даукеева С.Д. Философия музыки Абу Насра Мухаммада аль-Фараби: (Монография). - Алматы: Фонд Сорос – Казахстан, 2002; Низамов А. Тарих ва назарияи Шашмаком. – Душанбе, 2003; Шамилли Г.Б. Философия музыки. Теория и практика искусства макам. – М.: ООО Садра, 2020. 552 с.; Азизова Ф. Шашмаком и рага. – Душанбе, 1999; Абдурашидов А. Шашмаком. I-VI том. – Душанбе: Адиб, 2016.

³ Успенский В. А. Классическая музыка узбеков // Советский Узбекистан. – Ташкент, 1927; Миронов Н. Песни Ферганы, Бухары и Хивы. – Ташкент: Уз.гос. издательство, 1931. – 62 с.; Беляев В.М. Звукоряды узбекской музыки//Рукопись. –М., 1931; Романовская Е.Е. Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора. –Ташкент, 1957. – 136 с.; Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. Исторические очерки. - М.: Музыка,1980. Галицкая С.П. Теоретические вопросы монодии. –Ташкент. 1981; Галицкая С.П. О функции III ступени в ладах узбекской монодии// Вопросы музыкознания. Вып. 2. – Ташкент, 1971; Раджабов И.Р. Рукописные источники по истории музыкальной культуры народов Средней Азии из собрания восточных рукописей АН Узбекской ССР. Автореферат на соис. ... канд. Искусствоведения. – Л., 1955.; Ражабов И. Макомлар масаласига доир. –Тошкент: Ўз. Давлат бадий адабиёт, 1963; Кароматов Ф., Эльснер Ю. Макам и маком.//Музыка народов азии и африки. Вып. IV. – М., 1984. – 88-135 с.; Назаров А. Фаробий ва Ибн Сино мусикий ритмика хусусида/ Мумтоз ийкюь назарияси. – Тошкент, 1995; Султанова Р. О взаимосвязях усуля и ритма мелодии в вокальных частях Шашмакома. –Ташкент, 1998; Гафурбеков Т. Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. – Ташкент: Ўқиувчи, 1984; Гафурбеков Т. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской музыке. – Ташкент: Фан, 1987; Матёкубов О. Мақомот. – Тошкент: Мусиқа, 2004; Матякубов О. Узбекская классическая музыка. I-II том. Тошкент: Янги аср авлоди, 2015; Азимова А.Н. Вопросы синтаксиса восточной монодии. –Ташкент, 1989; Матякубова С. Маком сольфеджиоси. –Тошкент, 2013; Матякубова С. Маком сольфеджиоси (Намуды). –Тошкент, 2015; Юнусов Р. Макомы и мугамы. –Тошкент, 1983; Иброҳимов О. Маком ва макон. –Тошкент, 1996; Begmatov S. Mumtoz musiqa ijro uslublari. – Tashkent: Miron art-design, 2023.

I.Ibrohimov, B.Raximov, S.Xudoyberganov, R.Boltayev⁴ va boshqa mutaxassislarining ishlari mavjud.

Xorazm maqomlarining turkum sifatida taraqqiylashuvi XIX asrda keng miqyosda amalga oshirilgan bo'lsada, biroq ilmiy-nazariy o'rganish ishlari asosan XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Xususan, Mulla Bekjon Rahmon o'g'li hamda Muhammad Yusuf Devonzodaning 1925-yili Moskvada eski o'zbek yozuvida chop qilingan "Xorazm musiqiy tarixchasi"⁵ kitobida Xorazm maqomlari to'g'risida dastlabki ilmiy ma'lumotlar beriladi. Xorazmda maqomlarning yaratilish tarixi, nazariy asoslari haqida ayrim masalalar sanab o'tiladi.

Matniyoz Yusupov Xorazm maqomlari nota yozuvlari ustida chuqurroq ishladi. 1958-1962 yillari nashr etilgan "O'zbek xalq muzikasi" to'plamining (Xorazm maqomlari) VI jildida Xorazm maqomlarining aytim va chertim yo'llari, 1980-1987 yillarda 3 jildda Xorazm maqomlari nota to'plamini qaytadan to'ldirilgan holda nashr qiladi⁶. Mazkur to'plamlarda Xorazmda ijro qilinib kelinayotgan maqomlarning tartibi shakllantirilganini ko'rish mumkin. Biroq, notalashtirgan maqom qismlari Xorazm tanbur chizg'ilaridagi maqomlaridan farqlanishi, jumladan, qismlar tartiboti, nomlanishi, maqom qismlarining soni ortgani diqqatni tortadi. Shu sababli ham, "Xorazm maqomlari" kitobida kuylarning notalari va nomlanishida bahsli munozaralar mavjud.⁷

Musiqashunos Otanazar Matyoqubov Xorazm maqomlarida parda-lad tizimi tushunchasini "Maqomot",⁸ "O'zbek klassik musiqasi" (rus tilida)⁹ tadqiqotlarida ishlatib, ularning tarixiy va nazariy asoslari o'rganiladi. Shuningdek, "Xorazm Dutor maqomlari va Olti yarim maqomi"¹⁰ kitobida Xorazm Olti yarim maqomi, Dutor maqomlari, ularning umumiylik hamda ilmiy-nazariy masalalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Xorazm urfiy maqomlarining shakllanish tarixi, Xorazm tanbur chizg'ilarining zamonaviy nota yozuviga o'girilishi va uning nazariy masalalarini

⁴ Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчаси. Нашрга тайёрловчи Б.Матёқубов. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 46-б.; Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Нашрга тайёрловчи Каримбек Ҳасан. – Тошкент: Фан, 1993. – 57-б.; Успенский В. Классическая музыка узбеков // Советский Узбекистан. – Ташкент, 1927.; Миронов Н. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов востока. – Самарканд: Инмузхоруза, 1931. – 102 с. Романовская Е. Хоразм классик мусиқаси. – Ташкент: Ўздавфимнашр, 1939. – 128 б.; Ўзбек халқ мусиқаси. Хоразм мақомлари VI том. (Кириш қисми Ил.Ақбаров, Ю.Кон ҳаммуаллифлигида). – Тошкент: Ўзб. Дав. Бадиий адабиёт нашриёти. 1958. 5-30 бетлар; Ражабов И. Мақомлари масаласига доир. – Тошкент: Ўзб. Дав. Бадиий адабиёт нашриёти. 1963. 300 б.; Матякубов О. Хоразм дутор мақомлари ва олти ярим мақоми. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 240 б.; Ibrohimov I. Sahih suvoriylar. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2005. – 152 b.; Raximov B.M. Xorazm dutor maqomlari. San'atshunoslik fanlari b'yiicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021.; Boltayev R.K. Xorazm "tanbur chizgilari"ning ilmiy va amaliy tamoyillari. San'atshunoslik fanlari b'yiicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021.

⁵Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчаси. Нашрга тайёрловчи Б.Матёқубов. – Тошкент: Ёзувчи, 1998.

⁶Хоразм мақомлари (1-3 жилд) / Тўпловчи М.Юсупов. – Тошкент: Гафур Гулом, 1980, 1982, 1984, 1986, 1987.

⁷Masalan, Rost maqomining chertim qismlari "Xorazm musiqiy tarixchasi"da 11 ta, M.Yusupov notaga olgan to'plamida 18 tani tashkil qiladi. Ayrim qismlar "Tanbur chizg'ilari"ga to'g'ri kelmasligi va ijod qilingani maqomchi ustozlar tomonidan ta'kidlanadi. Shuningdek, chertim yo'llari qismlarining xona va bozgo'ylar tartibi, usullari va taktlar sonida xatoliklar mavjud.

⁸Матёқубов О. Мақомот. – Тошкент: Мусиқа, 2004.

⁹Матякубов О. Узбекская классическая музыка. Том I-II. –Ташкент: Янги аср авлоди, 2015

¹⁰Матякубов О. Хоразм Дутор мақомлари ва Олти ярим мақоми. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.

yoritishda Botir Raximov va Rustam Boltayevlarning xizmatlari katta. Ayniqsa, avvalgi Xorazm maqomlari nota matnlarini tiklash, Dutor maqomlarining tarixi va tartibotini shakllantirishda katta mehnat qilishdi.¹¹

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Maqom san'ati tarixi, nazariyasini o'rganish va yosh avlodni maqomlar ruhida tarbiyalash" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm maqomlarida lad va shakl masalalarini ochib berish va maqom san'atidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xorazm maqomlari turkumining yuzaga kelishini tarixiy va musiqiy-nazariy omillar asosida tahlil etish;

Xorazm maqomlarining ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish;

maqomlarda parda-lad tuzilishi, shakl tarkib topishi xususiyatlarini aniqlash;

Xorazm maqomlari Rost maqomi misolida chertim va aytim qismlarining lad va shakl tuzilishini tizimli tahlil qilish;

Xorazm maqomlari tartibotini Buxoro Shashmaqomi bilan umumiy hamda farqli tomonlarini tahlil etish va ilmiy-amaliy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida Xorazm maqomlarining musiqiy tizim sifatidagi lad asoslari, shakliy tuzilishi, maqom qismlarning turkumiy tartiblanish jarayonlari belgilandi.

Tadqiqotning predmetini Matniyoz Yusupov tartib qilgan Xorazm maqomlari turkumi nota to'plamlari, Xorazm urfiy maqomlari, Rost maqomining chertim va aytim qismlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, musiqiy-nazariy, majmuaviy, tasniflash kabi tadqiqot va tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Xorazm maqomlari chertim va aytim yo'llarining lad tuzilishi, ularning maqom qismlarini tarkib topishidagi ahamiyati, shakliy xususiyatlari va tarixiy shakllanishi nafaqat Buxoro Shashmaqomi, shuningdek O'n ikki maqom tizimi asosida takomillashgani nazariy asoslangan;

Xorazm maqomlarining chertim yo'llaridagi *Murabbai Komil, Muxammasi Feruz, Saqili Mirzo, Saqili Mo'hrkan, Ufar, Gulufar* maqom qismlarining lad, shakl, turkum tamoyillariga ko'ra aynan Xorazm mumtoz maqom an'analari asosida tarkib topganligi ilmiy-nazariy jihatdan isbotlangan;

Buxoro Shashmaqomidagi namud va avj kabi qismlar Xorazm maqomlarining (*Rost, Buzruk, Navo* maqomlari) tarkibida mavjudligi ilk bor ilmiy asosda (*Talqini Ushshoq* maqomida *namudi Ushshoq, Muxayyari Chorgoh avji; Suvorayi Rost* maqomida *namudi Ushshoq, namudi Uzzol, Muxayyari Chorgoh avji* qo'llanishi va ularning aytim yo'llaridagi *talqin, naqsh, suvora, nasr* kabi maqom qismlarida mahalliy bastakorlik an'analari negizida qo'llanilishi va farqli jihatlari) aniqlangan;

¹¹ Raximov B., Boltayev R. Xorazm urfiy maqomlari. –Toshkent: Adast poligraf, 2021

Xorazm maqomlarida *Peshrav* kompozitsion usulining lad va shakliy tarkib topishidagi maqom turkumining shakllanishi sababli muhimligi va uning o‘ziga xos rivojlanish shakli chertim-aytim qismlarida (*Tanimaqom, Peshrav, Suvora, Naqsh maqom qismlarida*) keng qo‘llanilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm maqomlarining tarkibiy va ifodaviy (parda, usul, shakl va h.k.) vositalari, ularning o‘zbek mumtoz musiqasiga oid nazariy ma‘lumotlar ochib berilgan;

sohaga doir oliy o‘quv yurtlari va musiqaga ixtisoslashtirilgan o‘rta-maxsus ta‘lim muassasalarining musiqiy-nazariy, tarixiy fanlari dars jarayonlarida qo‘shimcha ilmiy adabiyot bo‘lishi, shuningdek, o‘quv-uslubiy va ilmiy-adabiy manbalarni, turli tadqiqotlarni yaratishda xizmat qilishi asoslangan;

Xorazm maqomlari aytim yo‘llarida namud, avj va shu kabi tarkibiy qismlarning qo‘llanilishi, an‘analari hamda maqom turkumlarining tartib qilinishidagi ahamiyatini lad tizimi asosida aniqlanib, o‘zbek maqomlari nazariyasidagi o‘rni va ahamiyatini anglashga xizmat qilgani asoslangan;

Xorazm maqomlarining chertim-aytim maqom qismlarini yaratilishida O‘n ikki maqom tizimi va mahalliy bastakorlik urf-odatlarining ta‘siri mavjudligi, shuningdek, XIX asrda Buxoro Shashmaqomi turkumiylilik andozasi asosida maqomlarning yangicha qiyofa namoyon etganligi lad va shakl tuzilishi tahlil namunalari misolida isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil etilgan materiallardan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosiligi, olingan natijalarning amaliyotda, ta‘lim jarayonida foydalanilishi hamda sohaning yetuk olimlari qarashlariga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tanlangan mavzuning dolzarbligi va keltirilgan nazariy xulosalar bugungi davr musiqashunosligida mavjud ma‘lumotlarni kengaytiradi va to‘ldiradi, san‘atshunoslik, maqomshunoslik sohalarida ham birlamchi manbalarda mavjud musiqiy-nazariy tushunchalar mohiyatini teran anglash va yangicha, o‘ziga xos uslubda tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyaning ilmiy-tahliliy va tasnifiy ma‘lumotlarini oliy ta‘lim muassasalarida “O‘zbek musiqasi tarixi”, “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi”, “Maqom asoslari”, “Maqom solfedjiosi” kabi fanlarida dasturulamal sifatida amaliyotda qo‘llanilishi bilan birga sohaga oid istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari uchun samarali natijalar berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm maqomlarida lad va shakl masalalarining tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Xorazm maqomlari chertim va aytim yo‘llarining lad tuzilishi, ularning maqom qismlarini tarkib topishidagi ahamiyati, shakliy xususiyatlari va tarixiy shakllanishi nafaqat Buxoro Shashmaqomi, shuningdek O‘n ikki maqom tizimi asosida takomillashgani O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” teleradiokanali DM “O‘zbekiston 24” radiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta‘lim va taraqqiyot” nomli dasturlari ssenariysining 2024-yil 22 sentabr va 15 dekabr

sonining oliy ta'limga oid ruknini tayyorlashda foydalanildi. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 20-dekabrda 03-09-611-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilar Xorazm maqomlarini tarixi, ilmiy va amaliy jihatdan shakllanishi haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lishlariga erishilgan;

Xorazm maqomlarining chertim yo'llaridagi *Murabbai Komil, Muxammasi Feruz, Saqili Mirzo, Saqili Mo'hrkan, Ufar, Gulufar* maqom qismlarining lad, shakl, turkum tamoyillariga ko'ra aynan Xorazm mumtoz maqom an'analari asosida tarkib topganligi va Xorazm maqomlarida *Peshrav* kompozitsion usulining lad va shakli tarkib topishidagi maqom turkumining shakllanishi sababli muhimligi va uning o'ziga xos rivojlanish shakli chertim-aytim qismlarida (*Tanimaqom, Peshrav, Suvora, Naqsh maqom qismlarida*) keng qo'llanilishini targ'ib etish bo'yicha tadqiqot natijalaridan ALM-202403110255-son Davlat ilmiy-texnika dasturi "Pedagogika va psixologiya fanlari" yo'nalishi doirasidagi "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar uchun brayl alifbosida "Maqom solfedjiosi" hamda "Musiqqa nazariyasi" fanlaridan multimedia mahsulotlari majmuini yaratish" ilmiy-amaliy loyihasida foydalanilgan (Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqqa san'ati institutining 2025-yil 26-iyundagi 33-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim oluvchilarning Xorazm maqomlarining chertim yo'llari, muayyan ijodiy an'alar, maqom qismlarining nazariy tahlillari negizida muayyan qarashlar va yangi ilmiy tasavvurlarga ega bo'lishgan;

Buxoro Shashmaqomidagi namud va avj kabi qismlar Xorazm maqomlarining (*Rost, Buzruk, Navo* maqomlari) tarkibida mavjudligi ilk bor ilmiy asosda (*Talqini Ushshoq* maqomida *namudi Ushshoq, Muxayyari Chorgoh namudi; Suvorayi Rost* maqomida *namudi Ushshoq, namudi Uzzol, Muxayyari Chorgoh namudi* qo'llanishi va ularning aytim yo'llaridagi *talqin, naqsh, suvora, nasr* kabi maqom qismlarida mahalliy bastakorlik an'analari negizida qo'llanilishi va farqli jihatlari) aniqlanganligi to'g'risida o'tkazilgan ilmiy taqdimotda foydalanilgan (O'zbek milliy maqom san'ati markazi davlat muassasasining 2025-yil 20-iyundagi 01-12/466-1-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilar Xorazm maqomlari turkumining lad va shakl tuzilishi xususiyatlari, tamoyillari, o'zbek maqom san'ati rivojida o'rni va o'ziga xos qonuniyatlari bo'yicha maxsus tadqiq etilganligi, muayyan tahlillar asosida nazariy tizimlashtirish masalalarini o'rganib chiqilganligi haqida yangi ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lishlariga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha e'lon qilingan ilmiy ishlarning umumiy soni 12 ta, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 135 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining zamonaviy san'atshunoslik ilm-fani taraqqiyotidagi dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, metodlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek maqomlarining ilmiy-nazariy masalalari”** deb nomlanib, uning 1.1. bo‘limi **“Sharq allomalarining mumtoz musiqa nazariyasiga oid qarashlari”** deb ataladi. Unda maqomlarning ilmiy-nazariy ta'limotini yuzaga kelishi va o'rta asrlarda maqomlarning parda va lad muammolarini o'rganish jarayoni yoritiladi. Xususan, maqomlarning birlamchi nazariyasi yunon olimlari ishlarida ko'rilgan masalalar asosida arab tilidagi manbalar 3 turda shakllangan bo'lib, antik davr musiqiy terminologiyasini izohlar ko'rinishida (musiqa san'atining turli tarmoqlariga ko'ra), to'g'ridan-to'g'ri (leksik) va bilvosita (ma'noviy-mazmunan) tarjimalarini ko'rish mumkin.

Ma'lumki, Sharq olimlarning IX-XVI asrlar davomida yaratilgan turli tadqiqotlari va risolalarini Sharq xalqlari musiqasining rivojlanish tarixini yoritib berishda muhim manba sifatida qayd qilish mumkin. Ular o'z davrining musiqiy ilmi va san'atini aks ettiruvchi ma'naviy yodgorligi hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, ilk o'rta asrlarda yaratilgan musiqiy risolalarda, aynan musiqa san'atining nazariy masalalari tadqiq qilingan. Musiqaning ilmiy-nazariy tomonlari bilan taniqli Sharq allomalari – Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Nishopuri (XII-XIII asrlar), Faxriddin Roziy (1150-1209/1210), Safiuddin Urmaviy (1216-1294), Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1311), Abdulqodir Marog'iy (1353-1435), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Xusayniy (1436-1512), Najmiddin Kavkabi (1470-1532-33), Darvish Ali Changiy (1542-1649) va boshqalar shug'ullanishgan. Ularning asarlari maqomlar ilmining poydevorini tashkil etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Risolalarda, ayniqsa, mumtoz musiqaning parda va vazn masalalari, musiqiy shakl xususiyatlari, xalq orasida keng tarqalgan musiqiy cholg'ular, turli musiqachilar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Yuqorida zikr etilgan musiqashunoslarning umumiy qarashlari, izchil an'analar asosida shakllanib, bir-birini to'ldiradi va mumtoz musiqaga nisbatan yagona ilmiy ta'limotni namoyon etadi.

Risolalardan shuni qayd qilish mumkinki, musiqa ilmining mumtoz davri IX-XIII asrlar sanalib,¹² mazkur davrlarda musiqa ilmining asosan nazariy tasnifoti – tovush, uning musiqiy va fizik xususiyatlari, nag'ma, bo'd, parda-jins tushunchalari, ularning hosil bo'lishi, sifatleri, o'zaro munosabati tizimi, cholg'u asbobida joylashuvi, jamlar, shuningdek, iyqo' va boshqa qonuniyatlari ishlab chiqiladi.

¹² Bu davrda Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Xorazmiy va boshqa allomalarning asarlarida falsafiy va nazariy masalalar, yunon olimlarining ishlariga sharhlar keltiriladi. Qarang: Матякубов О.Р. Узбекская классическая музыка. – Ташкент, 2018. С. 10.

Keyingi davr XIII-XVII asrlarda musiqa ilmida ko‘proq maqomot masalalari muhim ahamiyat kasb etgani bilan dolzarbdir. Bu davrda yaratilgan musiqiy risolalarda O‘n ikki maqom (parda, advor) tizimi atroflicha yoritilganligi,¹³ uning o‘sha asrlar musiqa san‘atining kasbiy qatlamida muhim o‘rin tutganligidan dalolat beradi.

Musiqa nazariyasiga oid atamalar qo‘llanilishini quyidagi guruhlar asosida tasniflash mumkin¹⁴:

- Parda-ton
- Interval-tovushqatorli
- Ritmik
- Shakliy va janrli
- Musiqiy cholg‘ular bilan bog‘liq atamalar guruhi

1.2. **“Xorazm musiqiy madaniyatining shakllanishi va tarixiy jarayonlari”** deb nomlangan faslida Xorazm tarixi, musiqa madaniyatining davrlashtirilishi va mumtoz musiqa navlarining shakllanishi bayon etiladi. Ma‘lumki, O‘rta Osiyoning qadimiy davlatlaridan biri “Katta Xorazm” bo‘lib, u eramizdan avvalgi 1-ming yilligidayoq hukmronlik qilgan. Qadimgi Xorazm o‘zining madaniyati bo‘yicha ancha rivojlangan bo‘lib, o‘z dini, dunyoviy ilmi, yozuvi va ziyoli jamiyatiga ega edi. Tarixiy manbalarda “Xvayrizem”, “Xorasmiya”, “Xurvarazm” kabi tilga olinib, bu o‘lka “Quyosh yurti”, “Quyoshli o‘lka” yoki “Xurridlar yurti” - degan so‘z va iboralar bilan atalgan.¹⁵ Bundan tashqari fors tilida “Unumdor yer” ma‘nosida ta‘riflanishi ham bejis emas.¹⁶ Tuzilishi jihatidan Xorazm vohasi Amudaryoning (Jayhun) quyi oqimidan tortib Shimoliy orolgacha bo‘lgan hududni qamrab olgan. Xorazm nomi “Avesto”da, Gerodot va Strabon asarlarida, eski paxlaviy tilidagi diniy asarlarda va boshqa qadimiy manbalarning bir nechtasida tilga olinadi.¹⁷ Mazkur asarlarda Qadimgi Xorazm va uning jug‘rofik xaritasi haqida ma‘lumot olish mumkin.

Qadimgi Xorazmning shakllanishi va madaniyati haqida XX asrning 30-40 yillarida olib borilgan turli arxeologik ishlar orqali muhim ma‘lumotlar qayd etiladi. Xususan, V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, M.V.Voevodskiy, Y.G.Gulyamov, S.P.Tolstov, A.I.Terenojkin va boshqa arxeolog-antropologlarning olib borgan ekspeditsiya va tadqiqotlarini aytish mumkin. Ular Qadimgi Xorazmga kirgan – Guldursun, Ko‘hnavoz, Qumbosganqal’a, Teshikqal’a, Tuproqqal’a, Ayozaqal’a, Qo‘yqirilgan qal’a, Qo‘ziqirilgan qal’a, Odamlialqal’a, Qizqal’a, Qirqqiz qal’a va boshqa hududlarida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari natijasida topilgan materiallar shuni tasdiqlaydiki,¹⁸ qadimgi madaniyatning ancha yuqori bo‘lganligi aniq bo‘ladi.

¹³ Mazkur davrda Nishopuriy, Urmaviy, Roziy, Sheroziy, Marog‘iy, Jomiy, Xusayniy, Kavkabi, Changiy va boshqa olimlar yashab ijod etgan. Aynan Urmaviy asarlarida O‘n ikki maqom tizimining shakllanishi va undan keying olimlarning asarlarida tadqiqi etilishi va sharhlar keltirilishi kuzatiladi. Qarang: Джумаев А. Трактат о музыке Мухаммада Нишапури – ранний источник по системе 12 парда: история изучения, проблемы датировки и атрибуции. // Иран-наме. №4, 2013. Стр. 211-212.

¹⁴ Mazkur tasniflash risolalarda ko‘rilgan masalalar asosida tuzilib, taklif qilindi.

¹⁵ Джаббаров И. Древний Хорезм. –М.: ИЭА РАН, 2014. С. 12.

¹⁶ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. –М.: МГУ, 1948. С. 16

¹⁷ Bu haqida qarang: Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. –М.: МГУ, 1948. С. 16-23

¹⁸ Культура и искусства древнего Хорезма. Сб. ст., – М., 1981.

Ko‘plab musiqashunoslar Xorazm mumtoz musiqasining rivojlanish tarixini ikki davrga ajratishadi.¹⁹ Bunda birinchi davrni – Xorazm musiqasining eng qorong‘u zamonlari - deya ta’kidlab, mualliflar zamonidan besh yuz, olti yuz yil oldingi davrlarni nazarda tutishadi. Ikkinchi davri deb esa Muhammad Rahimxon avval zamonidan Muhammad Rahimxon soniy zamonigacha va undan keyingi davrni qayd etishadi.

Xorazm vohasining mahalliy uslubi, avvalo, o‘zining shevasi va musiqiy rang-barangligi bilan ajralib turadi. U xalq orasida tarqalgan kuy-qo‘shiqlar, laparlar, yallalar, termalar, dostonlarning kuy tuzilishi va ijro yo‘nalishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Xorazm musiqasining o‘ziga xosligi uning an’anaviy cholg‘ularida ham aks etgan. Xususan, dutor, tanbur, bulamon, g‘ijjak, nay, surnay, qo‘shnay, tor, garmon cholg‘ulari bu uslubda keng qo‘llaniladi.

Xorazmda keng tarqalgan aytim ijrolaridan biri Suvora yo‘llaridir. Mazkur nav’ shakl jihatdan maqom sho‘balari kabi yirikdir va usullari soqiynoma yoki ufar doyra usullari kabi murakkab. Suvora san’atining qanchalik qadimiy ekanligini Xorazmda maqom ijrochilik san’atining vujudga kelishi bilan bog‘lash mumkin. Bu san’atni suvoriyxonlik deyilishiga sabab eshituvchilarning xos davrlarida ijro qilingani uchundir.

Shuni aytish joizki, Xorazm musiqa san’ati o‘zining boy musiqiy va nomoddiy madaniy merosga egaligi bilan mashxur. O‘zbek musiqa madaniyatining mustahkam poydevori sifatida bugungi kunda ilmiy va ommaviy qatlam orasida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Xususan, hazrat Navoiydan tortib YUNESKOning Lazgi raqsiga bo‘lgan e’tirofi bu mahalliy uslubga bo‘lgan qiziqishimizni yanada oshiradi. Xorazm maqomlari-yu, ilohiy aytimlar bo‘lmish – suvoralar musiqasi mazkur hududning o‘ziga xos qirralarini namoyon etadi. Ijrochilik an’analarining keng shakllangani va o‘ziga xos maqom namunalarining yaratilishidagi davomiylik bugungi kunda ham o‘z ahamiyat yo‘qotmagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

1.3 fasli **“Xorazm maqom san’atining rivojlanish bosqichlari”** deb nomlanib, XIX asr Xorazm maqom san’atining muhim rivojlanish davri hisoblanadi. Zamonaviy maqom muhitining bayoni Niyozjon Xo‘jadan boshlanib, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II davrida Xorazm maqomlarining keng shakllanishi va taraqqiyotini qayd etish zarur. Muhammad Rahimxon Soniy musiqani, uning tartib va qonun-qoidasini olg‘a suruvchi hukmdor bo‘lgan.²⁰ Feruz haqida bir qancha rivoyatlar yozilgan bo‘lib, bu haqida turli kitoblardan ma’lumot olishimiz mumkin.

Bu davrdagi yana bir muhim shaxslardan biri, iqtidorli shoir va musiqashunos Pahlavonniyoz Mirzaboshi Komildir. Tanbur cholg‘usi va Shashmaqomni mukammal o‘zlashtirgan xivalik musiqachilarga o‘rgatib o‘z maktabini yaratgan shaxslardan biri. Ayniqsa, maqomlarni asl namunalarini saqlab qolish, musiqachilar orasida keng o‘rgatish maqsadida “Xorazm tanbur chizig‘i” ilk nota yozuvini ixtiro qilishi katta yutuqlardan hisoblanadi. Shuningdek, she’riyatga oshno bo‘lib, 254 g‘azaldan iborat “Devoni Komil” nomli she’riy devon tuzgani, “Ra’no va Zebo” asarini forschadan tarjima qilgani haqida ma’lumotlar mavjud. Shuningdek,

¹⁹ Мулла Бекжон Раҳмон ўғли ва Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм муסיкий тарихчаси. Нашрга тайёрловчи Ботир Матёкубов. “Ёзувчи”, – Тошкент, 1998

²⁰ Комил Аваз. Олис оҳанглар. – Тошкент: “Ф.Ғуллом номидаги адабиёт ва санъат”, 1997. 23-б.

Pahlavonniyoz Mirzaboshi tanbur cholgʻusini sevib chalishi va noyob ijrosini gʻazalga solib, goʻzal tarzda ifodalaydi:

*Gar olsa ilkiga ul moh tanbur,
Chekar oʻtlugʻ koʻnguldek oh tanbur.
Qilur mutribvashimning furqatida,
Damo-dam nolai jonkoh tanbur.
Gʻamingdin nola aylardi tunu-kun,
Mengadur hamdamu hamroh tanbur.
Boʻlurman gʻam saqilidin sabukbor,
Ayon qilsa gar ishqulloh tanbur.
Jahonda sozning anvoi koʻbdur,
Vale istar gadou shoh tanbur.
Boʻlur ushshoq, ey mutrib, asiring,
Olib soz aylasang dugoh tanbur.
Qilur sayri maqomot ul jihatdin,
Erur Komilgʻa xotirxoh tanbur.*

Muhammad Rasul Mirzaboshi – Pahlavon Niyoz Mirzaboshining katta oʻgʻli boʻlib, xon saroyida xattot va Feruz xonning musiqa muallimi boʻlgan. Otasi Pahlavon Niyoz Mirzaboshidan tanbur chalishni va Shashmaqomni toʻliq oʻrganib oladi. Musiqiyda Rost maqomining “Musabba” va “Ufori” qismlarini bogʻlaganligi aytiladi. Mirzo taxallusi bilan ijod qilib, “Magʻrib ul-nozirin” sheʼriy devoni va bir qancha asarlari bor. Arab, fors tillaridan anchagina sara asarlarni ham tarjima qilgan.

Muhammad Rahimxon Soniy Muhammad Rasul Mirzaboshiga otasi yaratgan tanbur chizigʻiga barcha Shashmaqom nagʻmalarini koʻchirishni buyuradi.²¹ Keyinchalik, xonning buyrugʻiga koʻra bu nusxalarni mohir xattotlardan Xudoybergan Muhrkan, Mulla Ismoil, Muhammad Yusufbek kabi kotiblariga berib bir nechta qoʻlyozma tayyorlash amr qilinadi.

Yana bitta muhim jihati shundaki, Muhammad Rasul Mirzaboshi barcha maqom nagʻmalarini yozib olishda ikkiga – chertim va aytim yoʻllariga ajratgan holda yozib oladi. Ularni alohida toʻplam qilib, manzum qismini xonandalar va mansur qismini cholgʻuchilar ijro qilishi uchun moslaydi.

Avvaldan maʼlum boʻlib kelgan, Buxoro Shashmaqomi xonlik musiqiyshunoslari orasida Shashmaqom nagʻmalari yoki tanbur maqomlari deb yuritilar edi. Bu tartibda Panjgoh maqomi Rost maqomidan sanalib, undagi chertim yoʻllari oshib ketishi natijasida alohida maqom holiga kelib qolgan. Keyinchalik, Muhammad Rasul Mirzaboshi uni aytim yoʻlini ham shakllantirib, toʻliq yetti maqom holiga keltirgani qayd qilinadi.²²

Xorazm maqomlarini yetakchi ijrochilari va ijodkorlari orasida Qambar bobo, Muxammad Yaqub pozachi, Xudoybergan Muhrkan Doʻnmas Qalandar, Rizo Baxshiy, Suyav Baxshiy, Abdurahmonbek gʻijjakchi, Abdulla Mejana gʻijjakchi, Muhammad Yaqub Xarrot gʻijjakchi, Yaqub Bulamonchi, Matpano ota

²¹ Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм муסיкий тарихчаси. Нашрга тайёрловчи Б. Матёкубов.– Тошкент: “Ёзувчи”, 2014, 39-б.

²² Oʻsha manba. 23-bet.

Xudoyberganov, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltaev, Komiljon Otaniyozov kabi ustozlarning roli kattadir.

Dissertatsiyaning **“Xorazm maqomlarining lad tizimi va o‘ziga xos xususiyatlari”** nomli II-bobida 2.1. **“XX asr O‘zbekiston musiqashunosligida Xorazm maqomlarining ilmiy tadqiq etilishi”** deb nomlanadi. XX asrda O‘zbekistonda nashr etilgan ko‘plab ilmiy manbalarda maqom turkumlarining tarkibiy tuzilishi va o‘ziga xos jihatlari, xususan, nazariy va amaliy tomonlari tadqiq qilinadi. Ma’lumki, bugungi kunda umumiy lad nazariyasining ancha keng qamrovli tarmog‘i bo‘lgan monodik musiqa va uning lad nazariyasi tobora keng rivojlanib borayotgani kuzatilmoqda.²³ Umumiy lad nazariyasining aynan shu sohasi antik va o‘rta asrlar musiqiy risolalarida faol tarzda o‘rganilganini qayd etish mumkin. Biroq, bunday risolalarda keltirilgan qonun qoidalarni oddiygina takrorlash va ularning tasnifotidan foydalanish zamonaviy musiqiy tafakkurimizni muayyan darajada qondirishi dargumon.

O‘zbekiston hududida mumtoz musiqaning lad va shakl masalalarini zamonaviy usullar asosida tadqiq qilishni biz shartli ravishda 2 bosqichga ajratdik. 1-bosqich XIX asrning oxiri va XX asrning 50-60 yillariga qadar bo‘lsa, 2-bosqich 70 yillardan bugungi kunga qadar bo‘lgan davr belgilanadi.

XX asrda Xorazm maqomlarining lad tizimi va uning nazariy masalalarini tadqiq etilishiga doir ishlar kamroq amalga oshirilgan. Xususan, Mulla Bekjon Rahmon va Matyusuf Devonzoda, A.Fitrat, Ye.Romanovskaya, I.Akbarov, M.Yusupov, I.Rajabov, O.Matyoqubov, B.Rahimov va R. Boltayev tadqiqotlari.

Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Matyusuf Devonzoda²⁴ hammuallifligida Xorazm maqomlarining lad tartibi, shakllari va maqomlarning boshlanish pardalari, usullar nazariyasi yoritiladi. Ularning fikriga ko‘ra, Xorazm maqomlarining lad tizimi Shashmaqomning o‘zgargan shakli emas, balki mustaqil rivojlangan tizimdir.²⁵

1934-yilda rus olimasi Yelena Romanovskaya Xorazmda maqomlarining faqat cholg‘u yo‘llarini notalashtirgan. Romanovskaya tadqiqotida Xorazm maqomlarining chertim qismlarini 7 maqom to‘liq holatda – Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Buzruk, Iroq va Panjgoh tartibida nota yozuvlarini bayon etadi. Xorazm maqomlarining hammasida deyarli Xiva musiqachilari ijod qilganligi va Buxoro Shashmaqomida bo‘lmagan bir nechta janr bo‘laklari borligini ta’kidlaydi.²⁶

Maqomot bilimdoni Otanazar Matyoqubov bir qator kitoblarida Xorazm maqomlarini tarixiy va ilmiy jihatdan o‘rganish bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.²⁷ Ayniqsa, Xorazm Olti yarim maqomi, tanbur

²³ Гаджибеков У. Основы азербайджанской народной музыки. – Баку. 1957. 113 с.; Алексеев Э.Е. Проблемы формирования лада. –М., 1976. 273 с.; Галицкая С.П. Теоретические вопросы монодии. –Ташкент, 1981. 92 с.; Плахов Ю.Н. Художественный канон в системе профессиональной восточной монодии. –Ташкент, 1988. 160.

²⁴ Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм муסיқий тарихчаси. Нашрга тайёрловчи Б. Матёкубов.– Тошкент: “Ёзувчи”, 1998.

²⁵ Boltayev R. Xorazm Olti yarim maqom usullari haqida// Academic research in educational Sciences. Vol. 3, Issue 3, 2022. 20-26 bet.

²⁶ Романовская Е. Хоразм классик муסיқаси. –Тошкент: Уздавфимнашр, 1939. 5-бет.

²⁷ Матякубов О. Хорезмские макамы. Диссертация ... кандидата искусствоведения. – Ташкент, 1976. -177с.

chizg'ilari, Dutor maqomlari va mazkur navlarning tarixiy-nazariy asoslarini shakllantirishda zarur tadqiqotlarni olib bordi.

2021-yilda musiqashunoslar Botir Raximov va Rustam Boltayevlar muhim tadqiqotlar olib borishib, xalq orasida keng tarqalgan Xorazm Urfiy maqomlarining yangi tahrirdagi nota yozuvlari yaratildi. Mazkur tartibda Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh maqomlari keltirilib, Urfiy maqomlarning aytim qismiga kirgan 5 ta maqomda 13 ta asosiy lad tuzilmasi mavjudligi ta'kidlanadi.²⁸

2.2 “**Buxoro Shashmaqomini Xorazm maqomlariga ta'sirining qiyosiy tahlili**” deb nomlangan bo'limda Buxoro Shashmaqomi va Xorazm Olti yarim maqomi o'rtasida umumiy va farqli tomonlari bayon etiladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Xorazm Olti Yarim maqomi turkumining shakllanishida XVIII asrda uzil-kesil shakllangan Buxoro Shashmaqomi turkumining andozasi muhim ahamiyat kasb etdi. Xorazm maqomlarining o'ziga xos shakli va usullari, lad tizimi, chertim-aytim yo'llari turkumi yuzaga keldi. Bunda xorazmlik ijrochilar va maqom shinavandalarining roli katta.





Xorazm maqomlari turkumining o'ziga xos masalalaridan biri shuki, turkumning boshlanuvchi qismi Tanimaqom bo'lsa, tugallanuvchi qismi esa Ufar hisoblanadi. Bunday tartib, chertim qismlarida va aytim qismlarida ham kuzatiladi. Ularning usuli ikki yo'lda ham bir xil saqlanib qolingan.

Xorazm maqomlarining Buxoro Shashmaqomidan farqli maqom qismlariga chertim yo'llaridan – Peshrav, Murabba, Musaddas, Nim saqil, Se usuli, Chor usuli, Zarb ul fath (Fohtak zarb) kabi maqom qismlarini qayd etish joiz. Shashmaqomda shu nom bilan atalgan cholg'u qismlari mavjud emas.

Masalan, chertim yo'lidagi Peshrav har bir maqom tarkibida bir nechta bo'lib, qadimiy maqom shakllaridan biri²⁹ va Xorazm hududida ijrochilar orasida keng qo'llanilgan kuy shakli ekanligi bilan izohlash mumkin.

Rost maqomida Peshravi Gardun qismi mavjud. Bunda, peshrav kuyning rivojlanishini anglatasa, gardun Shashmaqomdagi usulni anglatadi. Shuningdek, Xorazm maqomlari tarkibida peshrav qismlari Shashmaqomdagi gardun o'rniga kiritilib, kuyning peshrav shakli asosida rivojlanib borishi va bu orqali muayyan chertim qismlari yuzaga kelganini ifodalaydi.(1-jadval)

1-jadval:

Chertim yo'li	Usuli
Peshravi Gardun	
Peshrav I	
Peshrav II	
Peshrav III	
Peshrav IV	

²⁸ Raximov B., Boltayev R. Xorazm urfiy maqomlari. –Toshkent: Adast poligraf, 2021-y., 14-bet.

²⁹ Peshrav maqom, ovoz yoki sho'balalar nomi bilan qo'shib ataladi. Masalan, Peshravi (maqom) Kuchak, Peshravi (sho'bai) Hisor, Peshravi Shaxnoz, Peshravi Bastai nigori kabi. Ражабов И. Мақомлар. –Тошкент, 38-бет.


Xorazm maqomlarida aytim yo‘llari – Manzum deb yuritilib, xorazm mahalliy uslubiga xos suvora, naqsh, faryod, muqaddima kabi qismlar ham yaratilgan. Mazkur qismlarni I.Rajabov tarona o‘rnida kelishini va “tarona” nomi bilan emas, maxsus nomlar bilan almashtirilganini aytib o‘tadi.³⁰ Biroq, biz bu fikrdan yiroqmiz. Chunki, Xorazm maqomlari aytim yo‘lida tarona alohida keladi (jumladan, Xorazm musiqiy tarixchasi ham) va uning soni oxirgi nota to‘plamlarida bir nechta (Tani maqom Rostdan keyin Tarona I-IV, Tani maqom Buzrukdan keyin Tarona I-IV, Tani maqomi Segohdan keyin Tarona I-III va h.k.).

